O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA QO‘SHMA SO‘Z QISMLARI ORASIDAGI MUNOSABATNING IFODALANISHI

Janabaeva Ramiza Turdibek qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti magistri, Nukus Shahri 49-sonli maktabning O‘zbek tili fani o‘qituvchisi
ramizajanabaeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlarning strukturaviy va semantik xususiyatlari, ularning tarkibiy komponentlari o‘rtasidagi grammatik munosabatlar, bog‘lanish usullari, ma’no munosabatlari hamda qo‘shma so‘zlarning so‘z birikmasi, turg‘un birikma va juft so‘zlardan farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy tuzilishi, komponentlar tartibi, fonetik o‘zgarishlar, reduplikatsiya va juft so‘zlarning semantik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qo‘shma so‘z, komponent, so‘z birikmasi, turg‘un birikma, juft so‘z, reduplikatsiya, semantik munosabat.

O‘zbek tilining leksik tarkibi tarixiy taraqqiyot va jamiyatdagi o‘zgarishlar jarayonida muntazam ravishda boyib boradi. Yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji natijasida turli so‘z yasash usullari shakllangan bo‘lib, shulardan biri qo‘shma so‘z yasashdir. Qo‘shma so‘z ikki yoki undan ortiq komponentning muayyan munosabat asosida birikishi natijasida yuzaga keladi va tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qo‘shma so‘zning muhim xususiyati uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatning oddiy so‘z birikmasidagi munosabatdan farqlanishidir. Qo‘shma so‘z tilning tayyor materiali sifatida qo‘llanadi, nutq jarayonida har safar yangidan hosil qilinmaydi. Shu jihatdan u so‘z birikmasidan farq qiladi. Masalan, **shakar qop** qo‘shma so‘z sifatida barqaror holatga ega bo‘lsa, **shakarning qopi** erkin so‘z birikmasini anglatadi.

Qo‘shma so‘z tarkibidagi komponentlarning grammatik munosabati, avvalo, **tobelanish** va **tenglanish** asosida namoyon bo‘ladi. Tobelanish munosabatiga asoslangan qo‘shma so‘zlarda bir komponent ikkinchisiga semantik va grammatik jihatdan bog‘lanadi: **o‘q ariq, o‘q ilon, suv ilon, dala chumchuq,** kabi. Tenglanish asosidagi qo‘shma birliklarda esa komponentlar nisbatan teng munosabatda bo‘ladi: **o‘tin-ko‘mir, ota-ona, mosh-guruch, soch-soqol**. Tarkibli sonlarda ham bunday farq kuzatiladi: **o‘n besh** birikmasida tenglanish, **besh yuz** birikmasida esa tobelanish munosabati mavjud.

Komponentlarning bog‘lanishi turli vositalar orqali amalga oshishi

mumkin. Ular **amorf, ya'ni affikssiz** yoki **affiks yordamida** bog‘lanadi. Masalan, **to‘y boshi, so‘z boshi** kabi birliklarda affiks yordamida bog‘lanish kuzatiladi. Affikssiz bog‘lanish esa qadimgi va sodda usullardan biri bo‘lib, jonli so‘zlashuv nutqida ham uchraydi.

Qo‘shma so‘zlarda komponentlarning **semantik munosabati** ham xilma-xildir. Ular xoslik, o‘xshashlik, o‘rin, belgi, miqdor, harakat va obyekt munosabatlarini ifodalashi mumkin. Jumladan, **it pashsha, ot to‘rva** xoslikni, **tosh ko‘mir, anjir shaftoli, karnay gul** o‘xshashlikni, **qo‘qon gul** o‘rin munosabatini, **achchiq olma** belgini, **mingoyoq, qirqog‘ayni** miqdorni, **beshik tervatar, muz yorar, yer teshar** esa harakat va obyekt munosabatini ifodalaydi. Ko‘pincha birinchi komponent ikkinchi komponentning ma'nosini konkretlashtiradi yoki chegaralaydi. Masalan, **ilon** umumiy tushuncha bo‘lsa, **o‘q ilon, suv ilon** uning muayyan turlarini anglatadi. Bunda umumiy va xususiy ma'no munosabati yuzaga keladi. Komponentlarning ma'no munosabati qo‘shma so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligiga ham ta'sir qiladi. Masalan, xoslik ma'nosida **ot + ot** modeli, belgini ifodalashda **sifat + ot**, miqdorni ifodalashda esa **son + ot** modeli faol qo‘llanadi.

Qo‘shma so‘zlar tashqi ko‘rinishiga ko‘ra ayrim hollarda **turg‘un birikmalar**ga o‘xshab ketadi. Masalan, **temir yo‘l, devor soat** birliklarida ma'no maxsuslashuvi kuzatiladi. Biroq qo‘shma so‘z leksik-semantik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi hamda tilning nominativ funksiyasini bajaruvchi yaxlit birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tashqi jihatdan turg‘un birikmaga o‘xshashlik qo‘shma so‘zning mohiyatini o‘zgartirmaydi.

Qo‘shma so‘zning asosiy qismi odatda **ikki komponentli** bo‘ladi. Har bir komponent o‘zak yoki negiz shaklida kelishi mumkin. Qo‘shilish natijasida yangi ma'no yuzaga keladi, so‘zning shakliy yaxlitligi kuchayadi, komponentlar orasiga boshqa so‘z kiritish imkoniyati yo‘qoladi va ularning tartibi, odatda, barqarorlashadi. Ikkidan ortiq komponentli qo‘shma so‘zlar kam uchraydi. Bunda tilning ixchamlikka intilishi ham namoyon bo‘ladi: **sariq yog‘ – sariyog‘ – saryog‘, qora yog‘och – qayrag‘och** kabi shakllarda tarkibning qisqarishga intilishi kuzatiladi.

Qo‘shma so‘zlarning ma'nosi uning tarkibiy qismlarining semantik xususiyati va ular o‘rtasidagi ichki munosabat bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, **oq o‘rik, qo‘l arra, uch burchak** kabi birliklarda komponentlar o‘zining asosiy ma'nosi bilan aloqasini ma'lum darajada saqlaydi. Shu bilan birga, butun qo‘shilma yangi yoki umumlashgan tushunchani ifodalaydi. Qo‘shma so‘zlarning ma'nosi komponentlarning qaysi leksik-grammatik kategoriyaga mansubligi bilan ham bog‘liq. Qo‘shma so‘zlar, ayniqsa, **ot, sifat va fe'l** turkumlarida keng tarqalgan. Ularning shakllanishida konversiya, ya'ni

bir leksik-grammatik kategoriyadagi so‘zning boshqa kategoriyaga ko‘chishi ham muhim o‘rin tutadi. **Muz yorar, bo‘ri kalla, qizilurug‘, qo‘sh quloq** kabi birliklar bunga misol bo‘la oladi.

Qo‘shma so‘zlar tarkibida **qisqartma shakllar** va **reduplikatsiya** hodisalari ham muhim ahamiyatga ega. Abbreviatsiya orqali **MTP, BMT, O‘zTAG, O‘zdavnashr, ToshDPU** kabi birliklar yuzaga kelgan. Shuningdek, **telekamera, zoopark, aviabomba, agitbrigada** kabi birliklar boshqa tillardan o‘zlashgan yoki kalkalash asosida shakllangan qo‘shma birliklarning til taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida so‘z takrori va reduplikatsiya ham qadimiy so‘z yasash usullaridan biridir. Takror ma’noni kuchaytirish, intensivlik, emotsional bo‘yoq, harakatning takroriyligi yoki davomiyligini ifodalashi mumkin. Masalan, **tez-tez, o‘ylab-o‘ylab, nima-nima** kabi birliklarda takror turli grammatik va semantik vazifalarni bajaradi. Reduplikatsiya esa ayrim holatlarda yangi so‘z yasash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Qo‘shma so‘zlar tizimida **juft so‘zlar** ham alohida o‘rin egallaydi. Juft so‘zlar struktura jihatidan ikkilanish yo‘li bilan hosil bo‘lgan birliklarga yaqin bo‘lsa-da, aniqlovchili qo‘shma so‘zlardan muayyan jihatlari bilan farqlanadi. Juft so‘z komponentlari orasidagi grammatik aloqa, asosan, **tenglanish**ga asoslanadi. Masalan, **ota-ona, tog‘-tosh, mosh-guruch, yaxshi-yomon** kabi birliklarda komponentlar teng munosabatda bo‘ladi. Aniqlovchili qo‘shma so‘zlarda esa tobelanish munosabati ustunlik qiladi.

Juft so‘zlarning asosiy semantik xususiyati **umumlashtirish va jamlik** ma’nosini ifodalashdir. Masalan, **olma-o‘rik, jiyda-mayiz, ota-ona, aka-uka, borish-kelish** kabi birliklarda ikki komponentning ma’nosi umumlashib, kengroq tushunchani ifodalaydi. Ayrim hollarda juft so‘zning ma’nosi komponentlar ma’nosidan kengroq bo‘ladi: **qozon-tovoq** nafaqat qozon va tovoqni, balki ular bilan bog‘liq boshqa oshxona buyumlarini ham anglatishi mumkin. Sonlarning juftlashuvida esa **chama, taxmin va noaniqlik** ma’nolari yuzaga keladi: **uch-to‘rt, o‘n-o‘n besh, yigirma-o‘ttiz**. Juft so‘z komponentlarining joylashish tartibi ham muayyan qonuniyatlarga ega. Odatda qisqa yoki kam bo‘g‘inli komponent oldin keladi: **soch-soqol, mosh-guruch, qo‘y-qo‘zi**. Bo‘g‘in soni teng bo‘lganda esa unli bilan boshlanuvchi komponentning oldin kelishi kuzatiladi: **osh-non, osh-suv, o‘tin-ko‘mir, ota-bola**. Biroq semantik, mantiqiy, uslubiy yoki dialektal omillar sababli bu tartibdan chekinishlar ham mavjud.

Juft so‘zlarda fonetik o‘zgarishlar ham uchraydi. Ayrim birliklarda komponentlarning ohangdoshlikka intilishi natijasida tovush o‘zgarishi yuz beradi: **eski-tuski, bosar-tusar, yasanib-tusanib** kabi. Bunday fonetik yaqinlik komponentlarning fonetik jihatdan bir butunlashuvini kuchaytiradi. Ba’zi

hollarda esa fonetik o‘zgarish natijasida komponentning mustaqil so‘z sifatidagi holati xiralashadi va soddalanish jarayoni yuz beradi.

Xulosa qilib aytganda, qo‘shma so‘z o‘zbek tilining lug‘aviy tarkibini boyituvchi muhim vositalardan biridir. Uning asosiy belgilarini komponentlarning grammatik va semantik munosabati, tarkibiy yaxlitligi, turg‘un tartibi, yangi yoki umumlashgan ma’no ifodalashi hamda tilning nominativ ehtiyojlarini qondirishi tashkil etadi. Qo‘shma so‘zlar so‘z birikmasi, turg‘un birikma, juft so‘z, reduplikatsiya va qisqartma birliklar bilan ma’lum darajada aloqador bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos strukturaviy va semantik belgilar bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qo‘shma so‘zlarda tobelanish va tenglanish munosabatlarining namoyon bo‘lishi, komponentlarning semantik jihatdan bir-birini konkretlashtirishi yoki umumlashtirishi, juft so‘zlarda esa jamlik va umumlashtirish ma’nosining ustuvorligi mazkur birliklarning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Shuningdek, qo‘shma so‘zlarning rivojlanishi tilning umumiy taraqqiyoti, yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi, boshqa tillar bilan aloqalar va ixchamlikka intilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Shu jihatdan qo‘shma so‘zlarni strukturaviy, semantik va funksional tomondan o‘rganish o‘zbek tili leksik tizimining taraqqiyot qonuniyatlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA

1. Abdurahmonov N. Hozirgi zamon o‘zbek tilida juft so‘zlar sostavi masalasi //Samarqand davlat universitetining asarlari. -Samarqand, 1963.
2. Hojiyev A. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar. –T., 1965.
3. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: 2009.
4. Utemuratova N. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar va ularning derivatsiya masalalari: mag.dis. – N., 2021